

KICHIK MAKTAB YOSH DAVRIDAGI O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA QOBILIYATNING ROLI

Muhammadjonova Muslimaxon

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

Psixologiya (ijtimoiy) yonalishi

1-kurs magistratura bosqich talabasi

muhammadjonovamuslima07@gmail.com

+998917479803

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18346055>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv motivatsiyasini shakllantirish jarayonida qobiliyatning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish va ular orqali o'quv faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabatni kuchaytirish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada qobiliyat va motivatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng va tizimli ma'lumotlar berib o'tilgan.

Abstract:

This article discusses the role and importance of abilities in the process of forming learning motivation in primary school students. It also analyzes the issues of identifying and developing individual abilities of students and strengthening their positive attitude towards learning through them. The article provides pedagogical justification for the relationship between abilities and motivation.

Kalit so'zlar: o'quv motivatsiyasi, qobiliyat, kichik maktab yoshi, ta'lim jarayoni, shaxs rivoji.

Kirish. Kichik maktab yoshi (6-10 yosh) bolalar shaxsining psixologik va intellektual jihatdan jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Bu davrda o'quv faoliyati yetakchi faoliyat turi bo'lib, bolaning bilim olishga bo'lgan munosabati, o'quv motivatsiyasi va individual qobiliyatlari shakllanadi. Aynan shu bosqichda o'quv motivatsiyasining to'g'ri shakllanishi keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishning muhim omili sanaladi. O'quv motivatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar orasida qobiliyat muhim o'rin tutadi. Qobiliyat o'quvchining ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan individual imkoniyatlarini ifodalaydi va u o'quv jarayonida faollik, qiziqish hamda mustaqillikni kuchaytiradi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev kichik maktab yosh davri juda muhim bo'lgan davrlardan biri ekanligi va bu davrda bolalarga sifatli va samarali ta'lim berish muhim ekanligini ta'kidlab shunday fikrlarni bildirib o'tganlar. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, ularga qiziqarli va samarali ta'lim berish uchun imkoniyat yaratish lozim."¹ Jumladan O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuning 9-moddasida Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.² Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-avgustdagi Mustaqillik tantanalaridagi nutqi. Manba: kun.uz

² O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. Manba: <https://lex.uz/docs/-5013007>

Mahkamasining qarori qabul qilingan bo'lib unga ko'ra: Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o'zini o'zi nazorat qilish, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini egallashni ta'minlashga yo'naltirilad.³ Maktabda o'qishning boshlanishi 7 yoshda bo'ladigan to'rtinchi fiziologik krizis bilan mos keladi (bola organizmidajadal bo'yni o'sishi, ichki organlarning kattalashuvi, vegetativ o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan keskin endokrin o'zgarishlar ro'y beradi). 6—7 yoshli maktabga tayyor bolada «Men shuni xohlayman» motividan «Men shuni bajarishim kerak» motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, masalan, ma'lum darajada qo'rquvning kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon boladi.⁴ Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyatlari murakkab bo'lgan ko'p darajali motivlar tizimi bilan boshqariladi. O'quv faoliyati motivlari o'quvchilar nima uchun o'qiyotganlarini ko'rsatib beradi. Maktabning birinchi sinfga kelgan bolalarda ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu motivlar atrofdagilar orasida yangi mavqeni egallash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va baholanadigan faoliyat bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Lekin birinchi sinfnig oxirlariga borib, ko'pchilik o'quvchilar o'z maktab majburiyatlariga mas'uliyatsizlik bilan qaray boshlaydilar. Bu bir qancha sabablar bilan bog'liq:

1) bola endi o'quvchi bo'ldi, o'quvchi bo'lish istagi qondirildi. Bu maqomni ushlab turish uchun hech narsa qilmasa ham bo'ladi;

2) o'quvchining ijtimoiy mavqeyi maktabda ularga beriladigan o'quv faoliyati mazmuni bilan belgilanmaydi. Yangi dasturlar ta'lim mazmuni va uni tashkil etishga mutlaqo yangicha yondashuv asosida tuzilgan bo'lib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yosh imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, bolalarda qat'iy o'quv motivlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi, o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan yuzaga keladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istak va ishtiyoqini shakllantiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshida past o'zlashtirish sabablari va o'qishdagi qiyinchiliklar quyidagilar bilan bog'liqdir: 1) neyrofiziologik sabablar; 2) bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi; 3) erkin va mustaqil harakat qilish darajasining pastligi; 4) motivatsion sohalarining yetarli rivojlanmaganligi; 5) oila tarbiyasidagi, oilaviy munosabatlardagi kamchiliklar; 6) maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar; 7) o'zaro muloqot va munosabatdagi kamchiliklar; 8) shaxs xususiyatlardagi ogishishlar.⁵ Respublikamizda hozirgi kunda o'qish faoliyatidagi motivlar muammolarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borilmoqda. Masalan M.G.Davletshin, E. G'oziev,

³O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori, 15.03.2017 yildagi 140-son. Manba <https://lex.uz/docs/-3137130>

⁴ М.Г. Давлетшин, Ш.Дўстмуҳамедова, М.Мавлонов, С.Тўйчиева. Ёш даврлари ва педагогик психология (ўқув методик қўлланма). Тошкент 2004

⁵ Sherim betova Z .Sh.B oshlang'ich sinflardagi o'zlashtirm ovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari. P s.f.navtop ef..-T .2007.-17 c.

G'.B.Shoumarov, V.A.Tokareva R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullaev, A.K.Saitova, E.Z.Usmonova, M.Rasulova, F.I.Haydarov kabi psixolog olimlar ta'lim jarayonida o'qish motivlarini o'rganishga oid ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. E. G'oziev o'z tadqiqotlarida mustaqil tafakkurning rivojlanishi, bilish jarayonining qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilar faoliyatida yangi muvaffaqiyatlarga erishishning ijodiy manbai ekanligini aytib o'tadi. Olim o'quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqib, psixologiya fanining kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lgan o'qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy, emperik tomonlarini yoritib berdi.⁶ V.Karimova motiv motivatsiyaga nisbatan aniqroq, torroq tushuncha hisoblanib, shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi.⁷ G.Najmiddinova tadqiqotlarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini shakllantirish masalalariga alohida yondashilib, o'quv material va uning ustida ishlash orqali o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish mumkinligi asoslab beriladi. O'quv-biluv faoliyatiga oid psixologik tadqiqotlar ilmiy izlanishlarning katta qismini tashkil etadi. Respublikamizda professor M.G.Davletshin rahbarligida o'tkazilgan F.I.Haydarovning tadqiqotlarida qishloq maktabi o'quvchilarining o'qish motivlari, N.S.Jo'rayevning tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish motivlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari o'rganildi. Ushbu tadqiqotlarda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv motivlarini psixologik o'yinlar yordamida shakllantirishga mahalliy sharoitda ilk bor kompleks yondashildi. O'quv jarayonida foydalanilgan psixologik o'yinlar o'quvchilarning o'qishga ijodiy yondashuviga, psixik taraqqiyotiga va psixik jarayonlariga ta'sir etishi mumkinligi ko'rsatib berildi. Shu bilan birga baho olishga yo'nalganlik motivlari tashqi motivlar sirasiga kirsada, ichki motivlarni muayyan darajada rivoj topishiga ko'mak berishi ko'rsatib berildi. Sh.A.Dustmuxamedova tomonidan «Olti yoshli bolalarga ta'lim berishda pedagogik bahoning psixologik xususiyatlari» mavzuida ilmiy izlanishlar olib borilgan¹. Olimaning ta'kidlashicha, pedagogik baholarni formal va mazmunli baholarga ajratish mumkin. Olimaning ta'kidlashicha, pedagogik baho o'qituvchining bola bilan munosabat uslubiga, xususan o'qituvchi tomonidan baholovchi ta'sirning ma'lum tur va vositalarini tanlashiga bog'liq. Bunda qattiqqo'llik bilan, formal tipdagi baholovchi ta'sirdan ko'proq avtoritar pedagogik ustanovkalari mavjud o'qituvchilar tomonidan, yumshoq ko'ngillik bilan mazmunli motivatsion baho esa demokratik uslubdan foydalanuvchi o'qituvchilar tomonidan foydalanishi aniqlangan⁸

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv motivatsiyasini shakllantirishda qobiliyat muhim psixologik-pedagogik omil hisoblanadi. O'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni uning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi va kelgusidagi ta'lim muvaffaqiyatlariga mustahkam zamin yaratadi. Qobiliyat va o'quv motivatsiyasi o'zaro chambarchas bog'liqdir. O'quvchi o'z qobiliyatlariga mos faoliyatda muvaffaqiyatga erishgan sari, unda o'qishga bo'lgan qiziqish va ichki motivatsiya kuchayadi. Aksincha, qobiliyatlari

⁶ G'oziev, E. G'. (1988). O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. Toshkent: O'qituvchi. 101 bet.

⁷ Karimova, V. M. (2002). Psixologiya. Toshkent: T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi.

⁸ Дусмухамедова Ш.А. Психологические особенности педагогической оценки в обучении детей шестилетнего возраста...-М. 1987.-24 с.

e'tibordan chetda qolgan yoki yetarlicha qo'llab-quvvatlanmagan o'quvchilarda o'quv motivatsiyasi pasayishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda qobiliyat orqali o'quv motivatsiyasini shakllantirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchi har bir o'quvchining individual qobiliyatini aniqlashi, differensial va individual yondashuvni qo'llashi, ijodiy va o'yin texnologiyalaridan foydalanishi, o'quvchilarning muvaffaqiyatini o'z vaqtida e'tirof etishi lozim. Bunday yondashuv o'quvchida o'z qobiliyatlarini namoyon etish imkonini yaratadi va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-avgustdagi Mustaqillik tantanalaridagi nutqi. Manba: kun.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. Manba: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori, 15.03.2017 yildagi 140-son. Manba <https://lex.uz/docs/-3137130>.
4. Sherimbetova Z .Sh .Boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari. P s.f.navtop ef..-T .2007.-17 c.
5. G'oziev, E. G'. (1988). O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. Toshkent: O'qituvchi. 101 bet.
6. Karimova, V. M. (2002). Psixologiya. Toshkent: T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi.
7. М.Г. Давлетшин, Ш.Дўстмухамедова, М.Мавлонов, С.Туйчиева. Ёш даврлари ва педагогик психология (ўқув методик қўлланма). Тошкент 2004.
8. Дусмухамедова Ш.А. Психологические особенности педагогической оценки в обучении детей шестилетнего возраста..-М. 1987.-24 с.